

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMI USTIDA ISHLASHNING MAZMUNI

*Orazbayeva Venera Jangabay qizi*

*A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika Institutining  
"Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi.*

*Qoraqolpog'iston, Nukus*

*Orazimbetova Oysulu Ozod qizi*

*A'jiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika Institutining  
"Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi".*

*Qoraqolpog'iston, Nukus*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarni eng so'ngi zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitishning mohiyati va samaradorligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida sifat so'z turkumini qanday darajada o'zlashtirishi lozimligi, sifat so'z turkimini murakkablashib borishi va uni 1-sinfdan o't ot bilan bog'liq holda savollar yordamida o'rgatish, sifat so'z turkumini o'qitishning mazmuni va dars paytida har xil o'yin metodlaridan foydalanib mavzuni mustahkamlash haqida

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, texnologiya, sifat, ot, bilim, ko'nikma, malaka, o'yin metodi

Mamlakatimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan barkamol shaxslarni yaratishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifasini bajaradi. Bunda boshlang'ich sinf o'qtuvchisi va albatta o'quvchiga ma'sul shaxsning vazifasi katta. O'qtuvchining asosiy maqsadi - o'quvchilarga sifatli bilim berish, o'quvchilarning tartib-intizomli, fikirlash doirasi keng bo'lishini taminlashdir. O'quvchilarning ongi va tafakkuri fikir yuritishi endigina shakillanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qtuvchining mahorati, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi ilg'or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi ta'lim berishning yangi usullarini tanlashi juda muhim ahamyat kasb etadi. Ona tili darslarida albatta har bir yangi mavzu yangicha metodlar va eng so'ngi texnologiyalar yordamida tushintirilishi juda muhim. O'sib kelayotgan bolalarni barkamol shaxslar qilib ta'rbiyalash hozirgi kunning dolzarb muommosidir. Ilim fanning rivojlanishi bizning yanada bilimli bo'lishimizni talab etmoqda. Bilim olish ko'nikmasini shakllantirishda boshlang'ich sinf muhim bosqichdir. Maktabga munosabat, ilim olishga, o'qishga qiziqish va ishtiyoq sinfda hosil bo'ladi. Predmetning belgilari xilma-xil bo'lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi. Biz ona tili darsining eng muhim mavzularidan biri "Sifat" so'z turkumini ko'rib chiqmoqchimiz. Sifatni o'rganish tizimi

materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashib boradi. O'quvchilar I va II sinfda sifatning leksik ma'nosini o'rganib boshlang'ich tushinchalarga ega bo'ladilar. sifatning qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob berishni o'rganadilar; III sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; IV sinfda ilgari o'ganilganlarini takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda op-poq, yam-yashil kabi orttirma darajadagi sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi. Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisini ya'ni rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi va vazniga munosabatini bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun I sinfdanoq o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar. Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik morfologik va sintaktik ravishda olib borishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda “Sifat” mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi:

- 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (I, II sinf);
- 2) sifat haqida tushuncha berish (III sinf);
- 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (IV sinf).

O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, qanday o'rik – sariq shirin, yumaloq o'rik, qanday mato – uzun, qalin, yumshoq yashil mato. Albatta, suhbat asosida o'quvchilar o'rik, mato so'zlari nima? so'rog'iga javob bo'lib, predmet nomini bildirishi, shirin, yumaloq kabi so'zlar qanday? so'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisi rangi, mazasi, shaklini bildirishini aniqlaydilar. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan predmetlarning o'z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi Qanday daraxt? – Katta, chiroyli, sershox, ko'm-ko'k daraxt. Qanaqa shkaf? – Oynali, baland shkaf. Qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi. O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarni tushirib qoldirib, so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar predmetlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlardan keng foydalaniladi. O'quvchilar qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob bo'lgan predmet belgisini bildirgan so'zlarni o'zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi:

- 1) Savollar yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash;
- 2) aralash berilgan so'lardan gap tuzish;
- 3) matndan sifat so'z turkimini to'g'ri toposh
- 4) Har xil o'yin metodlari yordamida mavzuni mustahkamlash

Mashq materialini tanlashda -roq qo'shimchasi bilan qo'llangan yaxshiroq, aqlliroq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi osha borgani sayin, mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro bog'liq holda o'rganishga asoslanadi. Sifat so'z turkumi ustida ishlashda qo'llaniladigan ta'limiy vositalar. Sifatning nutqimizdagi fikrini aniq va tushunarli ifodalashdagi rolini puxta o'zlashtirishga erishish uchun sinonim va antonim sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish va o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli ravishda foydalanish malakasini shakllantiradi. Sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'einli foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda –roq qo'shichasi bilan bog'liq holda qo'llangan sifatlarni va ko'm-ko'k, yam-yashil kabi sifatlarni to'g'ri yechish malakasi shakllantiriladi. So'z mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilarning nutqini o'stirishga qaratiladi. Sifat turkumiga xos so'zlar quyidagicha ma'no guruhlariga bo'lingan:

1. Rang-tusni bildiruvchi sifatlar: qo'ng'ir, och qizil, yashil, ko'k. Masalan: Kamolaning uyida qo'ng'ir quyunchalari bor, lekin quyunchalarining onasi kulrang.

2. Ta'm-maza sifatlari: shirin, achchiqroq, bemaza. Masalan: Yangi yilda bir-biridan shirin pishiriqlar pishiramiz.

3. Xususiyat bildiruvchi sifatlar: sodda, quvnoq, sho'x, aqlli. Masalan: Zumrad va Qimmat ertagidagi Zumrad aqlli qiz bo'gani uchun barchaga birdek yoqadi.

4. Holat bildiruvchi sifatlar: xursand, xo'l, issiq. Masalan: Bol xursandligidan boshi ko'kka yetdi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko'rgazma vositalar, ya'ni predmetlar, narsalarning rasmlari syujetlari rasmlaridan keng foydalanilishi lozim. Boshlang'ich sinflarda sifatni ot bilan bog'liq holda o'rganib boradi. Bu mavzuni chuqurroq o'rgatishimiz uchun slayd va rasimlardan foydala olishimiz zarur. Misol uchun "Rasim" metodini olib qaraydigan bo'lsak o'qtuvchi uy hayvonlarini rasmini ko'rsatadi va bitta o'quvchidan so'raydi.

- Bu nima?

-Bu ot.

-Bu qanday rangli ot?

-Bu qora rangli ot.

Va o'atuvchi o'quvchidan qanday sifat so'zini ishlatganligini so'raydi. O'quvchi esa rang-tusni bilduruvchi sifat so'zini ishlatganligini aytisji lozim. Bundan boshqa "Do'stimni ta'riflab beraman" metodidan ham dars paytida foydalanish sifat so'z turkumini yaxshi o'zlashtirishi uchun katta yordam beradi. Bunda har bi o'quvchi o'zini yonida o'tirgan sinfdoshini tariflab berishi kerak. Masalan: Ziyoda chiroyli, aqilli, ziyrak qiz. Bunda chiroyli, aqilli, ziyrak so'zlari sifat ekanligini va Ziyoda ismi ot so'z turkimiga kirishini o'quvchi aytib o'tishi lozim.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki sifat ot bilan bog'liq holda o'rganilib boriladi va har bir sinfda mavzular murakkablashib boriladi. Shuning uchun ham har bir darsni eng so'ngi metodlar va texnologiyalar yordamida o'quvchilarga aniq va ravon tushintirish va o'rgatib borish o'qtuvchilarning zimmasidadir. O'qtuvchi har bir darsida o'yin va interaktiv metodlardan mohirona foydalana olishi lozim. Sababi faqatgina darsliklardan foydalanish o'quvchini charchatib zeriktirib qo'yishi mumkin. Har bir darsni chuqir va mukammal tarzda o'rgangan o'quvchilar albatta kelajagda o'zi hohlagan kasbni egallab xalqimizga foydasi tegadigan komil inson bo'lib o'sishiga biz ishonamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva Q va boshqalar "Savod o'rgatish darslari", Toshkent, "O'qtuvchi" ashiryoti, 1996 yil.
2. Abdullayeva Q. va boshqalar "2-sinfda oqish darslari", Toshkent, 2004 yil.
3. Azizxojayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent, 2006 yil
4. Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili", Toshkent, "O'qituvchi" nashiryoti 1999 yil.
5. «Kitobim-oftobim»> Toshkent, «Oqituvchi» nashriyoti, 2008 yilR
6. R.A.Mavlanova, N. Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integraciyalashgan pedagogikasi, Toshkent, Ilim-Ziyo 2009 yil
7. Abdullayeva Q va boshqalar "2-sinfda o'qish darslari" Toshkent, 2004 yil